

SOLIQDAN QOCHISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINING TAHLILI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
Axmedov Feruz Baxodirovich*

Annotasiya: Mazkur maqolada respublikamizda so‘ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiylar ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta’mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo’llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Annotation: This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish:

Jahon iqtisodiyotida global moliyaviy beqarorlik kuchayishi sharoitida qisqa va uzoq muddatli budjet-soliq siyosatiga oid strategiyani ishlab chiqishda soliq to‘lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarining oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotda noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash jarayonlarining oldini olish, soliq to‘lashdan qochish xavflarini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi.

J.Shumpeter (2007) ikki turga bo‘linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo‘lgan texnik nosozlik bilan bog‘liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining etishmasligi bilan bog‘liq xavf.

A.K.Pokrovskiy (2011) ko‘rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o‘zaro ta’sir qilish, xavf haqida mavjud ma’lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog‘liq xarajatlar (xarajatlar), o‘ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o‘ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo‘lmaydigan qismi ekanligi ta’kidlanib, qaysiki ular rag‘batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini ma’lum qilgan .

Aronov, Kashinlar (2004) o‘zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatları, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarini amalgalarga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov “Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to‘g‘risida”gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini rag‘batlantirish

hamda ularning debtor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to‘lovchilarga davlat hamkor sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliqdan qochish bu soliq to‘lovchining iqtisodiy egoistik tuyg‘usiga asosan yuzaga kelsada, biroq, u jamiyatning iqtisodiy sohalari orqali ijtimoiy muammo darajasida namoyon bo‘lib, siyosiy masalalarga aylanadi. Bu borada Bavariya moliya vaziri E.Guver "Germaniyada soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash istagi tug‘ilish istagidan kuchliroqdir"¹ deganda soliqdan bo‘yin tovplashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko‘rsatib o‘tgan edi. Soliqdan qochish masalalari ham iqtisodiy ham ijtimoiy ham huquqiy muammo sifatida bizgacha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarining ob’ekti sifatida o‘rganib kelingan. Ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan biz quyida ana ilmiy tadqiqot ishlarini kengroq ilmiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

Soliqdan qochishning iqtisodiy tomonlari bilan birgalikda uning huquqiy tomonlari ham ilmiy tadqiqot ishlarining ob’ekti sifatida ko‘plab tanlanmoqda. Jumladan, Rossiyalik olma L.Aleksandrova bu boradagi tadqiqotlari natijasida “Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovplashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o‘tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo‘ymoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo‘llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagи jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Darhaqiqat, bunday odamlarning soni ancha ko‘p. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir”² deb ta’kidlaydiki, muallif soliqdan bo‘yin tovplash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi.

L.Aleksandrova o‘z tadqiqotlarida soliqdan qochishning huquqiy tomonlariga baho berib, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovplashni o‘z vaqtida aniqlash va tekshirish soliq, ma’muriy, jinoiy, jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv qonunchiligining sifatiga bevosita bog‘liqdir”³ deydi va bir qator omillarini keltirib o‘tadi. Ular jumlasiga, soliq

¹ Kottke K. «Gryaznye» den‘gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel’stu v oblasti «gryaznyh» deneg. M., 1998.

² Л.И. Александрова. Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // Актуальные проблемы правового регулирования. 2017. С.2.

³ Л.И. Александрова. Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // Актуальные проблемы правового регулирования. 2017. С.7.

to‘lovchilarning offshor zonalarga “qochishi”, soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchini ro‘yxatga olishning mukammallashmaganligi, soliq to‘lovchilarga buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha davlat talablarining takomillashmaganligi, soliq to‘lovchilar faoliyatini tekshiruv maqsadlarida tanlash usullarining yetarli emasligi, “bir kunlik” va “uxlovchi” firmalarning o‘zaro integratsiyasini aniqlashning qiyinligi va shu kabilarni alohida keltirib o‘tadi.

Darhaqiqat, dunyo amaliyotida offshor biznes bu ko‘pgina davlatlar uchun iqtisodiy siyosatining o‘zagini tashkil qiladi, ularning iqtisodida iqtisodiy tushkunlik sodir bo‘lsa va tabiiy va malakali inson resurslari yetishmagan, ishlab chiqarish salohiyati nisbatan past bo‘lgan mamlakatlar o‘z hududida chet el tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish imkonini berishga harakat qiladi, bu bir tomonidan davlat g‘aznasi uchun ma’lum bir daromad manbai bo‘lsada, boshqa davlatlarning tadbirkorlariga iqtisodiy (soliq)imtiyozlarini berish orqali, ikkinchi tomondan, ularga soliqdan qo‘chishga ham parallel ravishda imkon yaratib beradi. Bu esa, jahon amaliyotidagi o‘zaro integratsion aloqalarda bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan ikki yoqlama soliq tortish munosabatlarini adolatli tartibga solishni taqozo etadi. Fikrimizcha, tashqi savdo masalalarini tartibga solish bilan bog‘liq munosabatlarda parallel ravishda hal etiladigan masalalardan biri bu offshor zonalar orqali kapitallarning oqimida soliqdan qo‘chish “imkoniyatlar”ni tartiblashga ham alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Afsuski, bugungi kunda aksariyat olimlar, jumladan, soliqdan qo‘chishning huquqiy asoslарини tadqiq etib kelayotgan L.Aleksandrovaning fikricha ham, offshor biznes bu-soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning muhim usullaridan biri sifatida imkoniyat eshigi bo‘lib qolmoqda, undan foydalanishda agar qonunchilik bazasining nomukammalligi va iqtisodiy tizimning beqarorligiga asoslansa, katta salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Chunki, offshor biznesda undagi ishtirokchilarining faoliyatları avvalo fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi, chunki ularning faoliyatı tadbirkorlik faoliyatı bilan bog‘liq bo‘ladi, vaholanki, to‘liq takomillashgan qonunchilik bazasining yo‘qligi offshor biznes ishtirokchilarining o‘z qoidalarini o‘rnatishiga, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning muayyan sxemalarini topishiga olib keladi.

Ko‘pgina adabiyotlarda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi sifatida baholanadi. Masalan, I.Vachugov soliqdan qo‘chish jarayonini yashirin iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” tushunchasini ham tushuntirib o‘tadi. Uning fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yashirin tuzilmalarning faoliyatı bizga “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” atamasini kiritish imkonini beradi, uning ta’rifi quydagicha ifodalanishi mumkin: soliq to‘lovchilarning o‘zlari ham, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni tashkil

etish bilan bog‘liq faoliyatni ta’minlaydigan xizmatlarni ko‘rsatadigan soya tuzilmalari tushuniladi”⁴. O‘z navbatida ayrim iqtisodchilar yashirin iqtisodiyotni – “reklama qilinmaydigan, ularning ishtirokchilari tomonidan yashirilmagan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmagan iqtisodiy jarayonlar”⁵ sifatida baholaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, yashirin iqtisodiyot reklamaga muhtoj bo‘lmaydi, moliyaviy nazoratdan chetda qolgan va statistikaga tortilmay qolgan faoliyatni qamrab oladi.

I.A.Mayburova, A.P.Kireenko, Yu.B.Ivanovalar esa, soliqdan qochishga quydagicha ta’rif beradi: “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash deganda soliq to‘lovchining soliq to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini o‘zgartirishning noqonuniy yo‘li tushunilishi kerak, bunda soliq organlaridan daromadlar va mol-mulkni yashirish, uydirma xarajatlar yaratish, shuningdek, qasddan buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini buzish”⁶ holatlari yuz beradi.

Soliqdan qochish holatlarini keng tadqiq qiladigan iqtisodchi olim I.Vachugov soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jarayonining o‘zini ikki turga bo‘lish mumkin deb hisoblaydi. Uning birinchisida, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash sxemasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda, uchinchi tomon «mutaxassislari»ni jalb qilmasdan (yirik biznes uchun odatiy) tuzilib, amalga oshirilsa, uning ikkinchi turidan foydalanadigan soliq to‘lovchilar chetlab o‘tish sxemasini qurish va qoida tariqasida uni amalga oshirish uchun uchinchi tomon “mutaxassislari” xizmatlaridan foydalanadilar”⁷.

I.Vachugovdan farqli o‘laroq, P.S. Yefimichev esa, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bu-qonunda belgilangan soliqlarni to‘lash bo‘yicha qonunda belgilangan harakatlarni qasddan qilmaslik shaklida namoyonlik (harakatsizlik) hisoblanadi”⁸ deb ta’riflaydi. Ayrim olimlar soliqdan qochishni ijtimoiy xavf deb hisoblaydi. Jumladan, S.L.Nudel “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash ijtimoiy xavflidir, jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliqqa tortish sohasida qonunda belgilangan soliqlarni va (yoki) yig‘imlarni to‘liq yoki qisman to‘lamaslikka qaratilgan harakat yoki harakatsizligidir”⁹ mazmunida tushuntiradi.

⁴ Вачугов И.В. — Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Налоги и налогообложение. – 2019. – № 6. – С. 42.

⁵ Райзберг Б. А. Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. – М. : ИНФРА-М, 1997. – 496

⁶ Уклонение от уплаты налогов. Проблемы и решения: монография для магистров, обучающихся по программам направления «Финансы и кредит» / И.А. Майбуров [и др.]; под ред. И.А. Майбурова, А.П. Киреенко, Ю.Б. Иванова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.-с.383.

⁷ Вачугов И.В. — Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Налоги и налогообложение. – 2019. – № 6. – С. 45.

⁸ Ефимичев П.С. Предмет и пределы доказывания по уголовным делам о налоговых преступлениях // Журнал Российской права. – 2000. – №9.

⁹ С.Л.Нудел. Вопросы квалификации уголовно-наказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов. Научные ведомости № 2(33), 2007.

Soliqdan qochishni ijtimoiy xavf darajasida baholash holatlari I.Vachugov, V.P. Verinlarda ham uchraydi. Ya’ni, soliqlardan qochishning ijtimoiy xavfliligi – soliqqa oid jinoyatlarning jinoyatchilik qonuni bilan qo‘riqlanadigan jamoat munosabatlariga zarar yetkazish qobiliyati, insonning ijtimoiy guruh pozitsiyasidan kelib chiqib, inson xatti-harakatlarini aniqlash imkonini beradigan ob’ektiv xususiyatdir” deb I.Vachugov ta’riflasa, V.P. Verinning fikricha esa, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning ijtimoiy xavfi belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatni qasddan bajarmaslikdan iborat bo‘lib, bu byudjet tizimiga mablag‘larning tushmasligiga olib keladi”¹⁰. Darhaqiqat, I.Vachugov, V.P. Verinlar bu yerda soliq to‘lamaslik hodisasi, bu nafaqat iqtisodiy munosabat, balkim, uning sotsial oqibatlari jamiyatning katta ijtimoiy xavfi darajasida baholanishi kerak degan g‘oyalari o‘rinli deb hisoblaymiz.

Soliqdan qochishning sotsial oqibatlari haqida gap ketganda soliq to‘lovchilarning davlat byudjetiga o‘zlariga yuklatilgan soliq majburiyatları doirasidagi pul tushumlarini o‘z manfaatlarida olib qolishi, jamiyat a’zolarining boshqalarining sotsial sharoitlarini og‘irlashtirishga qilingan harakat sifatida baholash lozim. Soliqdan qochish bu boshqalarning manfaatlariga zarar keltirish bilan bir qatorda, egoistik-xudbinlik xususiyatlarning ham kuchayishini ta’minlaydi, bundan tashqari, soliq to‘lamaslik jamiyatning boshqa a’zolari bilan birgalik tuyg‘usini yo‘qotadi, individuallikni keltiradi, pirovardida esa, jamiyatdan ijtimoiy naf olib, jamiyatga iqtisodiy naf berishni unutishga yetaklaydi. Bu holatlar soliqdan bo‘yin tovlashning qanchalik ijtimoiy xavf ekanligidan dalolat beradi.

V.Brajnikov soliqdan qochish holatlari bo‘yicha tadqiqotlaridan kelib chiqib, ta’kidlaydiki, “soliq jinoyatlari o‘z tuzilishiga ko‘ra huquq nazariyasida moddiy deb ataladigan tarkibga kiradiki, soliqqa oid jinoyatlarning tugallanishi bu soliq qonunchiligidagi belgilangan soliqni to‘lashning oxirgi muddati”¹¹ hisoblanadi. Ushbu tadqiqotchi fikricha, soliq turlari bo‘yicha byudjetga to‘lov davrining turlichaligi, soliqdan qochish holatlarini iqtisodiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish va uni aniqlashni anchayin murakkablashtiradi. Darhaqiqat soliq turlari bo‘yicha soliqni byudjetga o‘tkazish muddati bir xil emas, iqtisodiy jihatdan olib qaraganda bir xil bo‘lishi mumkin emas. Chunki, soliqlarni to‘lash muddatlarining turlichaligi soliq to‘lovchiga soliq to‘lovlarini to‘lash reja grafigini bajarishga imkon beradi.

Boshqa tomondan soliq to‘lovchi tomonidan ma’lum bir soliq turi bo‘yicha ortiqcha to‘lovni (ongli yoki bilmasdan turib) amalga oshirgan sharoitda kelgusi davr uchun keyingi soliq turi bo‘yicha soliqlarni kamroq (ongli yoki bilmasdan) to‘lash

¹⁰ Верин В.П. Преступления в сфере экономики. – М., 2001.

¹¹ Бражников Владислав Виталевич. К вопросу об объективной стороне уклонения от уплаты налогов. Вестник Омской юридической академии. 2017. Том 14. № 3.

holati ro'y berishi ehtimoldan holi emas. Bunday sharoitda bu kabi soliq to'lovchi misolida soliqdan qochish holatiga huquqiy baho berish anchayin murakkab hisoblanadi. Alovida olingen soliq to'lovchilar kesimida soliqdan qochish holatlarini tahlil qilinganda bizning fikrimizcha, yuqorida ta'kidlagan holatlarni e'tiborga olgan holda yondoshish kerak deb hisoblaymiz.

Bu yerda soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'lovlar emas, ko'proq soliq turlari bo'yicha (masalan, mol-mulk, yer solig'i) kam hisoblangan yoki o'tkazilgan soliq summalarining mazmunini tahlil qilish kerak bo'ladi. Kichik summadagi soliq majburiyatlari bo'yicha ongli ravishda qo'shimcha ravishda ortiqcha soliq to'lovlarini bajarishi bilan ongli ravishda boshqa soliq turi (masalan, QQS) katta miqdordagi soliq summasini muddati to'lamaslik yoki kam hisoblash holati soliq to'lovchining bu boradagi hatti-harakatiga ham iqtisodiy ham huquqiy jihatdan baho berish murakkab jarayon hisoblanadi. Shu boisdan bizning fikrimizcha, har qanday shakldagi va holatdagi soliqdan qochish holatlarini parallel ravishda iqtisodiy-huquqiy formatida o'rganish va baho berish lozim.

Haqiqatdan ham Ye.Anufrievaning yondoshuvida ilmiy mantiqiylik mavjud, ya'ni, soliqdan qochish holatining holati va darajasiga hamda soliqlarni minimallashtirish hamda soliqlarni rejalashtirish katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Agar, soliq to'lovchi soliqlarni to'g'ri rejalashtirsa, o'z navbatida soliqlarni qonuniy minimallashtirishga erishadi, provardida esa, soliqlarni qochish holatiga ehtiyoj qolmaydi. Soliq to'lovchining hisob siyosatida soliqlarni rejalashtirish va minimallashtirishning o'zaro bog'liqlikligi asoslangan soliq to'lash siyosatining puxta bo'lishi soliqdan qochish holatlariga duch kelmasligini ta'minlaydi.

Soliqdan qochish masalalari bo'yicha chuqur tadqiqotlar mualliflaridan hisoblangan A.N.Tiščenko, A.A.Berezovskayalar ta'kidlashicha, "soliq to'lashdan bo'yin tov lash har qanday davlat uchun jiddiy muammo bo'lib, uning oqibatlari mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatda o'z aksini topadi. Makrodarajada bu hodisa turli darajadagi byudjetlarga mablag'larning yetarli darajada tushmasligiga va buning natijasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan xarajatlarni yetarli darajada moliyalashtirilmamasligiga, moliyaviy va boshqa moddiy resurslarning notekis taqsimlanishiga olib keladi".

Myallif (lar)	Ta'rif mazmuni	Manbasi
D. Tixonov i L. Lipnik	Soliqdan qochish noqonuniy soliq rejalashtirishga deyarli teng, soliqdan qochish esa qonuniy soliq rejalashtirishga mos keladi.	Tixonov D., Lipnik L. Nalogovoe planirovanie i minimizatsiya nalogovyx riskov. M.: Alpina Biznes Buks, 2004. 253 s.
A.N. Tiščenko,	"Soliq to'lashdan bo'yin tov lash"	A.N. Tiščenko, A.A. Yenina-

A.A. Yenina-Berezovskaya	deganda soliq to‘lovchining soliqlarni minimallashtirishning noqonuniy usullari va usullaridan foydalangan holda byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi soliq majburiyatlarini miqdorini kamaytirishga qaratilgan qasddan harakatlari tushunilishi mumkin.	Berezovskaya. Osnovnye prichiny ukloneniya ot uplaty nalogov. Vestnik UrFU. Seriya ekonomika i upravlenie. № 4/2011. S. 119-124.
G. Agarkov	"soliq to‘lashdan bo‘yin tovash" tushunchasi tadbirkorlik maqsadiga ega bo‘lmagan va asossiz soliq imtiyozlarini olishga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarini anglatadi.	Agarkov G.A. Protivodeystvie nalogovoy sistemy tenevoy ekonomiceskoy deyatelnosti / pod. red. A.I. Tatarkina, A.A. Kuklina. Ekaterinburg: Institut ekonomiki UrO RAN, 2007. 278 s.
V. Vishnevskiy i A. Vetkin	Soliq to‘lashdan qochish bu soliqqa tortish jarayonidan qochishdir.	Vishnevskiy V.P., Vetkin A.S. Uxod ot uplaty nalogov: teoriya i praktika: monografiya. Doneck: IEP NAN Ukrains, 2003. 228 s.
L. Gindzburg	Soliq to‘lashdan bo‘yin tovash-ongli ravishda jinoiy javobgarlikka tortiladigan, soliq organlaridan daromad va mulkni yashirish usullari, shuningdek, buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini qasddan (qasddan) buzish soliq to‘lovulari bo‘yicha soliq majburiyatlarini kamaytirishga qaratilgan harakat.	Gindzburg L. Byudjetirovanie i nalogovoe planirovanie. // AKDI Ekonomika i jizn, 2002. № 7.
E.M.Anufrieva	Soliq to‘lashdan bo‘yin tovash - nazorat ob’ekti bo‘lgan va soliq to‘lovchilar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar yoki soliq jinoyatlarini sodir etish orqali amalga oshiriladigan soliq to‘lovulari bo‘yicha soliq majburiyatlarini minimallashtirish shaklidir.	E.M.Anufrieva. Ponyatie ukloneniya ot uplaty nalogov v sisteme nalogovyx otnosheniyy. // Finansy i kredit. 44 (332) – 2008.
Yuridik lug‘at	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovash – foya (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatishdir.	huquqiportal.uz.-huquqiy portal

O‘zbekistonlik olimlardan professorlar A.Vahobov, A.Jo‘raevlar o‘zlarining

“Soliqlar va soliqqa tortish” darsligida soliqdan qochishning usullarining nazariy tahlillarini keltirib o‘tadi. Ular ta’kidlaydiki, “soliqqa oid qonunbuzilishlarning tipik ko‘rinishlaridan biri xo‘jalik sub’ektlari tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lmasdan, soliq inspeksiyalariga soliq hisobini, balans hisobotlarini topshirmasdan moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi”¹². Bundan tashqari soliqdan qochishning oddiy ko‘rinishlari sifatida keltirib o‘tadiki, unga ko‘ra, “amaliyotda yirik sanoat korxonalari tomonidan pul mablag‘larini sho‘ba korxonalari orqali noqonuniy tarzda o‘zlashtirish korxona o‘ziga tegishli pul mablag‘larining ma’lum qismini sho‘ba korxonasingin hisob-raqamiga o‘tkazadi. O‘z navbatida, mazkur shu’ba korxonasi pul mablag‘larini soxta shartnomalar orqali xorijiy davlatlarga o‘tkazib beradi yoki soxta kirim-chiqim hujjatlari orqali naqd pulga aylantiriladi va o‘zlashtiriladi”¹³.

Ushbu olimlar soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlashning bir qator usullarini keltirib o‘tadi:

- soliq to‘lovchilarning soliq organlariga soliq hisob-kitobi va
- buxgalteriya hisobotlarini topshirmasliklari
- yuridik va jismoniy shaxslarning soliq nazoratidan chetda qolishi
- soliq to‘lovchining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatlari natijalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilmasligi
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish imkonini beruvchi
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarni noqonuniy o‘zgartirish yo‘li bilan soliqqa tortish ob’ekti xususidagi ma’lumotlarni soxtalashtirish
- «soxta eksport» operatsiyalarini amalga oshirish yo‘li bilan
- qo‘silgan qiymat solig‘ini noqonuniy qoplash
- notijorat tashkilotlari tomonidan foyda solig‘iga tortilmaydigan asosiy faoliyat turi bahonasida tijorat faoliyatini yuritish
- aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni aksiz solig‘iga tortilmaydigan tovarlar sifatida ishlab chiqarish va sotish¹⁴ va shu kabilar.

Soliqdan qochish holatlarining iqtisodiy, huquqiy hamda sosial jihatlari doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.G.Sanina soliq munosabatlarining ijtimoiylashuvi doirasida soliq to‘lashdan bo‘yin tovashning sabablarini ko‘rsatib o‘tadi. Uning fikricha, soliq munosabatlarining ijtimoiyligining to‘rt jihat mavjuddir. Ya’ni, “mohiyatan soliq munosabatlari, soliq munosabatlari odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, ya’ni munosabatlar ijtimoiy bo‘lib, uning ikkinchi jihat ular turli shaxslar, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy jamoalar manfaatlarining kesishishi, ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning namoyon bo‘lishi va murosaga erishishning

¹² А.Вахобов, А.Жўраев. Соликлар ва солиққа тортиш: Дарслик. – Т.: “Шарк” нашриёти – 2009. 268 бет.

¹³ O’sha manba. 269 б.

¹⁴ O’sha manba. 268-275 б.

muhim sohasi ekanligi bilan izohlansa, soliq munosabatlari ijtimoiyligining uchinchi jihat shundan iboratki, soliqlar fuqarolik o‘ziga xosligini shakllantirishda, fuqarolik o‘ziga xosligini shakllantirishda «biz» obrazini shakllantirishda, shaxsning o‘zini fuqaro, a’zo sifatida idrok etishda muhim element hisoblanadi, soliq munosabatlari ijtimoiy mohiyatining to‘rtinchi jihat shundan iboratki, soliq munosabatlari o‘ziga xos ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda mujassamlanadi, soliq munosabatlaridan farqli o‘laroq, soliq o‘zaro ta’sirlari soliq munosabatlarini amalga oshirishga qaratilgan jismoniy shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos o‘zaro ta’siridir”¹⁵ Darhaqiqat A.Sanina ko‘rsatib o‘tganidek, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash ijtimoiy muammo sifatida yuzaga chiqadi va uning to‘rtta muhim jihat: moliyaviy-iqtisodiy, iqtisodiy va ma’muriy, tarixiy va haqiqiy-ijtimoiyni keltirib o‘tish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar bilan jismoniy shaxslar o‘rtasida predmeti ishlar bajarishdan iborat bo‘lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to‘lovlarga ishlatilgan materiallar narxi ham qo‘shilgan bo‘lsa, ushbu JShni tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligini va tegishli soliqlar hisoblanishini tekshirish. Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasи o‘rtasida har bir birja savdolari yakunlari yuzasidan onlayn ravishda ma’lumot almashinish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

F.Axmedov Soliq to‘lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.

Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шум- петер. М.: Изд-во Эксмо, 2007. 864 с.

Покровский А.К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, 2011. 160 с.

Кристина Ф.Б. “The Informal Economy” march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития СЕ-105 25 Стокголма Швеция.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

Жалонкина И, (2012) “Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской федерации”. Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

¹⁵ А.Г.Санина. Уклонение от уплаты налогов как проблема социального управления. — М.; СПб.: АльянсАрхео, 2009. 11-19 с.

Андреева В.А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14) 2017. стр.136-140.

Кузнесов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) 2016. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [хттп://vasiliyevaa.narod.ru/zurnal/](http://vasiliyevaa.narod.ru/zurnal/)

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

Нормурзаев У. Х. 2021 йилдаги солиқ маъмурчилиги ҳамда солиқ кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – 2021. – Т. 6. – №. 182 част 2. – С. 99.